


## 2022- yil yanvar-iyul oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent shahrida jami **17 296,6** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 109,6 % ni tashkil etdi.




### 2022- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.



**Ma’lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2022- yil yanvar-iyul oylarida mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2022- yil 1-avgust holatiga ko‘ra qurilish sohasida ro‘yxatdan o’tgan jami korxona va tashkilotlar soni 9,6 mingta, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 9,3 mingtani tashkil etib, o’tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 592 taga ko‘paygan.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida o’tgan yilning mos davriga nisbatan bino va inshootlar qurilishi ishlari hajmi 111,5 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 62,8 %) ni tashkil qildi, fuqarolik obyektlarini qurish 89,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 20,1 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 133,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 17,1 %) Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko‘payishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Bino va inshootlar qurilishi bo‘yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g’ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyul oylaridagi jami qurilish ko‘rsatkichiga nisbatan 118,3 % ni tashkil etdi.




## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.08.2021- yil	01.08.2022- yil	
<b>Toshkent shahar</b>	<b>8721</b>	<b>9313</b>	<b>592</b>
tumanlar:			
Uchtepa	629	658	29
Bektemir	184	214	30
Yunusobod	1112	1144	32
Mirzo Ulug'bek	1114	1176	62
Mirobod	804	857	53
Shayxontoxur	690	733	43
Olmazor	737	769	32
Sergeli	480	505	25
Yakkasaroy	896	941	45
Yashnabod	792	884	92
Yangihayot	175	245	70
Chilonzor	1108	1187	79



## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.08.2022- yil holatiga




**Ma'lumot uchun:** Toshkent shahrida qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Chilonzor (12,7 %), Mirzo Ulug'bek (12,6 %) va Yunusobod (12,3 %) tumanlaridir.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **4 857,0** mlrd. soʻnni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **124,3 %** ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **33,4 %** ni tashkil qildi.




## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Yunusobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **53,5 %**), Uchtepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **50,6 %**), Chilonzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **44,1 %**), Shayxontohur tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **44,0 %**)ga toʼgʼri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



### Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-iyul oylari
- 2022- yil yanvar-iyul oylari


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **57,8 %**i bajarilib, 2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **1,8 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,8 %** ni tashkil etgan holda **9 998,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlaridagi ulushi **7,0 %** ni tashkil etib, **1 205,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **81,0 %** ni tashkil etdi.




## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **362,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **66,7 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **16 934,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **110,7 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,9 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-iyul

62,8 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **62,8 %** yoki **7 246,7 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

37,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **3 787,9 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **37,5 %** ni tashkil etdi.

56,9 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **5 742,1 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **56,9 %** ni tashkil etdi.

5,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **561,5 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **5,6 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2022- yil yanvar-iyul oylarida**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sish sur’ati, %da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>17 296,6</b>	<b>109,6</b>	<b>10 091,5</b>
tumanlar:			
Uchtepa	1 102,6	77,5	555,7
Bektemir	565,5	141,9	329,0
Yunusobod	3 300,3	129,7	2353,7
Mirzo Ulug‘bek	1 871,0	99,3	1006,2
Mirobod	1 880,7	117,7	1054,9
Shayxontoxur	1 207,0	98,8	846,9
Olmazor	995,3	81,6	629,8
Sergeli	751,4	101,6	400,3
Yakkasaroy	1 487,6	105,1	796,1
Yashnabod	1 703,1	135,7	782,3
Yangihayot	609,5	132,9	346,6
Chilonzor	1 822,6	111,8	989,9

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda



## Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2021- yil yanvar-iyul

13,9




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

24,6



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

61,5



Bino va inshootlarni  
qurilishi

2022- yil yanvar-iyul

17,1



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

20,1



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

62,8



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **33,0 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **146,8 %** ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-iyul oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **118,3 %** ni tashkil qildi, ulushi esa **55,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021-yilning yanvar-iyul oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **77,1 %**ni tashkil qildi, ulushi esa **11,1 %**ni tashkil etdi.



■ 2021- yil yanvar-iyul

■ 2022- yil yanvar-iyul




## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **44,8 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **75,1 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **55,2 %** ni va 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **126,5 %** ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **31,9 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **306,9 %** ni tashkil etdi. **68,1 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **71,7 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyul

### Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)

Yunusobod t.  
3 300,3


1

Mirobod t.  
1 880,7

2

Mirzo Ulug'bek t.  
1 871,0

3



### Eng kichik hajm (mlrd. so'm)

Bektemir t.  
565,5



1

2

Yangihayot t.  
609,5

Sergeli  
751,4

3



## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



**Toshkent shahar  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)*

**2022- yil yanvar-iyul  
oylarida**

**Toshkent shahrida qurilish ishlari**